

Imom Muhammad Majid: O'zbekiston - dinlar va madaniyatlar uyg'unligi namunasi



Bugun Toshkentda bo'lib o'tayotgan "Deklaratsiyalar muloqoti" forumida AQSHning Dalles okrugi musulmon jamiyati markazi rahbari imom Muhammad Majid O'zbekiston hukumatiga har doimgidek samimiy mehmondo'stlik uchun minnatdorlik bildirdi.

Uning ta'kidlashicha, O'zbekiston boy tarixiy merosga ega, turli dinlarning o'zaro hamjihatlikda yashashining yorqin namunasi bo'lgan mamlakatdir. Uning so'zlariga ko'ra, bu yerda asrlar davomida masjidlar, cherkovlar va sinagogalar tinch-totuv joylashgan bo'lib, bu bag'rikenglik va o'zaro hurmatning o'ziga xos muhitini aks ettiradi.

Ushbu fikrni davom ettirar ekan, imom haqli ravishda O'zbekiston "Islom sivilizatsiyasi durdonasi" deb e'tirof etilishini ta'kidladi. Aynan shu zaminda bunyodkorlik va ma'naviy taraqqiyot uchun shart-sharoit shakllangan, buyuk ilohiyotchilar va olimlar mehnat qilgan, fundamental ilmiy asarlar yaratilgan. Bu merosda Imom Al-Buxoriy, Al-Termizi va boshqa ulug' mutafakkirlarning xizmatlari alohida o'rinn tutadi.

So'zining yakunida Muhammad Majid O'zbekistonning bugungi kunda diniy turizm markazi sifatidagi o'rniga e'tibor qaratdi. Uning ta'kidlashicha, bugungi kunda ko'plab amerikalik musulmonlar mamlakatga muqaddas qadamjolarni ziyorat qilish uchun kelishadi, shuningdek, o'zbekistonlik mutaxassislar bilan birgalikda xalqaro konferensiyalar va ilmiy uchrashuvlarda faol ishtirok etishadi.

Eslatib o'tamiz, Forum SMTI tomonidan Amerikaning "Love Your Neighbor Community" (LYNC) nodavlat tashkiloti bilan hamkorlikda Din ishlari bo'yicha qo'mita, O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi va Samarkand viloyati hokimligi ko'magida tashkil etildi.

Unda AQSH, Buyuk Britaniya, Xitoy, Saudiya Arabistoni, Birlashgan Arab Amirliklari, Indoneziya, Markaziy Osiyo davlatlari kabi 15 ta davlatdan 50 ga yaqin yetakchi dinshunos, ilohiyotshunos, ekspert va yuqori martabali shaxslar ishtirok etmoqda.